

KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARDA AGRESSIV XULQ-ATVORNI SHAKLLANISHI.

Mirzayeva Sarvinoz Xasan qizi

O'ralova Dinora Aliboy qizi

Termiz Davlat Pedagogika instituti talabasi.

Annotatsiya: Bugungi kunda agressiv xarakterli bolalar maktab oquvchilari orasida soni ortib borayotganligi psixologiyadagi dolzarb muammolar qatoridan joy egallashiga sabab boldi. Maktab bolalarida agressiv xatti-harakatlarning vujudga kelishi murakkab va kop qirrali jarayon bolib, unga kopgina omillar oz tasirini otkazadi. Agressiv xatti-harakatlar oilada, tengdoshlar guruhida, oilaviy axborot vositasi tasirida shakllanishi aniqlangan. Bolalarga qarshi agressivlik-jismoniy, psixologik, jinsiy va shuning bilan birga bolaning ehtiyojlarini hisobga olmaslik hamda oilaviy va o`z yaqinlari tomonidan zo`rovonlikka qarshi yo`l quyish holatlarini kiritgan.

Kalit so'zlar: Krizis, agressivlik, xulq-atvor, noo`rin jazo, intellektual soha, tajovuzkor xulq, nosog'lom oila, ommaviy axborot vositalari, psixoterapevt.

Bugungi kunda talim-tarbiya borasida olib borilayotgan islohotlardan kozlangan asosiy maqsad komil inson, yetuk kadrlarni tarbiyalashni talab etadi. Manan yetuk, komil inson tarbiyasi esa bevosita kichik maktab yoshda bolajonlarimizning olayotgan talim va tarbiyalariga bogliq. Xulq-atvorning, inson salohiyat darajasining negizi ham aynan mana shu yosh davrlarida vujudga keladi. Agressiya bolalarda salbiy xulq-atvor bilan namoyon boladi. Unga insonlarga jismoniy va ruhiy zarar keltirish deb ham tarif beriladi. Agressivlik holati kopgina kichik yoshdagi bolalarga xos bolib, kop hollarda bolalarda agressiv xatti-harakat otish davrida kuzatiladi, yani 1 yosh, 3 yosh va 7 yosh krizis davrlarida namoyon boladi. Bolalarning kichik maktab yoshidagi davri 7 yoshdan 11 yoshgacha boshlang'ich sinflarda o`qishi yiliga to`g`ri keladi. Bog'cha yoshidagi bolalik tugaydi. Maktabga kelish oldidan bola quyidagiga ko`ra o`z hayotini eng muhim davriga ya`ni maktab davri tomoniga qo`yiladigan turli tuman talablarni bajarishga vaqtida kattalar tomonidan e`tibor berilmaganligi sababli agressiya kuchayib cho`zilib go`yoki bizning nazarimizda harakterga aylanib boradi. Bola yosh davrlari inqirozi paytida qiyinchiliklarga ro`baro bo`lib, natijada uning xatti-harakatlarida agressiya elementlari kuzatila boshlaydi. Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha etibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, otishi

qiyin kechadi. Agar oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantiraolsa, muloqotga mehribonlik, gamxorlikni kiritsa, shu asosida unda agressivlikni yengib otishga imkoniyat yaratadi.

Agressivlikni shunchalik kichik turlari ko'pki, hatto biz bu usullarni o'zimizga, atrofimizdagilarga va hatto farzandimizga nisbatan qo'llaganimizni sezmaymiz, chunki bu jamiat tomonidan go'yoki norma sifatida qaraladi va hech kim etiroz bildirmaydi. Biz farzandlarimizni aqlan, ruhan va jismonan sog'lom bo'lishini xoxlaymizu ammo har doim ham to'g'ri muhitni, to'g'ri munosabatlarni shakillantira olmaymiz.

A.Bass va I.Darki tomonidan agressiv xulq-atvorning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatilgan.

1. Jismoniy agressiya – boshqa bir odamga qarshi jismoniy kuch ishlatishni ifodalaydi.

2. Verbal agressiya – salbiy his-tuyg'ularni og'zaki tarzda ifodalanishi (qiy-chuv solish, so'kinish, og'zaki tahdid qilish, la'nat aytish, qarg'ash).

3. Bilvosita agressiya – boshqa shaxsga qaratilgan g'iybat, piching ko'rinishida bilvosita olinadigan alam, hech kimga yo'naltirilmagan nafrat (yer tepish, baqirib-chaqirish).

4. Negativizm – mavjud qonun-qoidalarga shunchaki qarshi chiqishdan totib, ular bilankurashishgacha bo'lgan reaksiyalar (voqelikka salbiy munosabatda bo'lish, hamma narsani inkor etish).

5. Jizzakilik – jizzakilikka moyillik, arzimagan narsalarga portlab ketish, keskinlik qo'pollik qilish.

6. Sergumonlik – ishonchsizlikka moyillik, odamlardan shubhalanish, ular bilan ehtiyot bo'lib munosabatga kirishish, atrofdagilar zarar yetkazishi mumkin degan o'y bilan yashash.

7. Ranjning butun olamdan yoki kimdandir alamzadalik, hayolan yoki chindan ham keltirilgan iztirobdan g'azablanish, atrofdagilarga nisbatan nafrat va hasadning namoyon bo'lishi;

8. Autoagressiya – o'zi va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlarda kuzatiladigan aybdorlik hissi, o'ziga qarshi qaratilgan xatti-harakat (o'zini ayblash, men shundoqman, men bundoqman deb ich-etini yeyish).

Bola 3 yoshligidayoq ota-onasi tomonidan xato ishi uchun jazolanishini biladi, ammo nima mumkin emasligini tushinib yetmaydi. Masalan: tanbeh, xaqorat, jazolashning har qanday turi qo'llanilganda bola buni bir o'tkinchi holat sifatida anglamaydi balki bu juda kuchli og'riq sifatida qabul qiladi. Bunday vaziatlarni senariysini tushungan bola jazodan qutilish uchun biror nima uylab topishga harakat qiladi natijada yolg'on gapirish odati bolada shakillanadi. Bola 5-7 yosh bo'lganda taqiqlar va u uylab topgan vaziatni

yumshatuvchi harakatlar ish bermaganda ota-ona bolaga qilgan tahdidlarni o`zlashtiradi va o`zlariga nisbatan qaytaradi. Uydan ketib qolish yoki aytganini bajarmasdan hamma narsaga befarqlik bilan munosabat bildiradi. Bola katta bo`lgan sari munosabatlarni o`rnatishga qiynaladigan. Insonlardan o`zini olib qochadigan, o`ziga nisbatan ishonchi past insonga aylanadi. Chunki bola yaxshi munosabatga o`zini loyiq deb hisoblamaydi, yoki o`zgalarni jazolovchi insonlarga aylanishadi. Boshqalarga jazo berish orqali o`zlarini bolalardagi qondirilmagan ehtiyojlarini qondirayotgandek bo`ladi. Bolalarni to`g`ri ruhiy, manaviy barkamol bo`lib o`sishi uchun etibor berish zarur jihatlari.

1. Bolalar bilan munosabatda bolalarcha hissiyotda bo`la olish.

2. Omma oldida bolani kamsitish yoki agressivlikni hech qanday ko`rinishlarini qo`llamaslik.

3. Bolaga va`da berib bajarmaslikdan ko`ra to`g`ri hamkorlikni yulga qo`yish.

4. Bolalarni o`ziga nisbatan yaxshi natija ko`rsatgan bolalarga solishtirmaslik (har bir bola indevedualligi sababli qobilyati xar-xil bo`ladi. Bolani yo`naltirish esa kattalarni ma`sulyati hisoblanadi. Solishtirish bolaga o`ziga ishonchni past bo`lib shakillanishiga olib keladi) Bolalar oilada xavsiz yashashi uchun ota-onalar etiborli bo`lishlari kerak. Xalqaro hamjamiyat bolalarga nisbatan agressivlik ishlatilishini quydagicha tavsiflaydi.

K.S.Shalaginova 2003-2007 yillar davomidagi tadqiqot ishida "Agressivlik" tushunchasini ilimiy asoslab beradi va u boshlang'ich maktab yoshidagi agressivlik namoyon bo'lishining to'rt darajasiga xos xususiyatni keltiradi: nol darajada g'ayritabiiy agressivlik yo'qolgan, birinchi darajada - agressivlik asosan hissiyirodaviy sohada, ikkinchi darajada intellektual soha hukmronlik qiladigan hissiyirodaviy sohada, uchinchi daraja hissiy-irodaviy, intellektual, faoliyat soha hukmronlik qiladigan darajalarga ajratgan.

S.A.Travina tadqiqoti natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida agressiv harakatlarning oldini olishda o'qituvchilar va maktab psixologining o'zaro tasirida harakatlarni muvofiqlashtirish jarayonining samaradorligiga erishgan. Faqat o'qituvchigina bolaga meyorlar qo'yishi, ularning xatti-harakatlarini baholashi, o'z xatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. Bola uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat sinfdagi, balki, umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bandura tajovuzkor xulqni tahlil qilishda quyidagi uchta jihatni hisobga olgan:

1. Mazkur harakatlarni ozlashtirish usullari;
2. Uni yuzaga keltiruvchi omillar;
3. Ular mustahkamlanadigan sharoitlar.

Shu boisdan, eng katta ahamiyat bolalarga tajovuzkorlikni o'rganishga, ijtimoiylashuvning birlamchi vositachilari, aniqrog'i ota-onalarning tasiriga qaratiladi. Xususan, ota-onalarning xulq-atvorlari tajovuzkorlik modeli vazifasini o'tashi va agressiv ota-onalarning bolalarida ham agressivlik kuzatilishi isbotlandi. Shuningdek, ushbu yondashuv namoyondalari keng diapozandagi tajovuzkor reaksiyaning inson tomonidan o'zlashtirilishi - ushbu xulqni to'g'ridan-to'g'ri ragbatlantirishga kiradi. Yani, tajovuzkor xatti-harakatning mustahkamlanishi mazkur xatti-harakatning keyinchalik ham takrorlanish ehtimolini oshiradi. Shuningdek, natija keltiradigan tajovuzkorlik, yani tajovuzkor xulqning qo'llanilishi oqibatida muvaffaqiyatga erishish ham muhim ahamiyatga ega boladi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda agressiya odatda zaifroq bolgan o'quvchilarga nisbatan (tanlagan qurboniga) ko'pincha mazah qilish, bosim o'tkazish, urushtirish, janjallashish shaklida qollaniladi. Maktab bolalarining bir biriga nisbatan agressiv xulq-atvori bir qator vaziyatlarda jiddiy muammoga aylanadi. O'qituvchilar va ota-onaning bunday xulq-atvoriga keskin reaksiyasi odatda bolalar agressivligini kamaytirmasdan, aksincha uni kuchaytiradi, chunki u agressorlarning mustaqilligi va kuchining bilvosita isboti bolib xizmat qiladi. Bunga qaramasdan, aynan o'qituvchi, uning avtoriteti va agressiv xulq-atvoriga ochiq munosabatini bildirish mahorati, bolalarni ko'proq ijtimoiy maqullangan xulq-atvor shakllarini tanlashga undaydi.

Maktab bolalarida agressiv xatti-harakat namunalarni quyidagi uch asosiy manbaga asoslanib to'playdi:

1. Nosog'lom oila muhiti. Ba'zi oilalarda ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatning ijobiy psixologik iqlimda emasligi, farzandlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar, oiladagi mojarolar, nizolar, oilaviy hamohanglikning mavjud emasligi bolalarda agressiv xulq-atvorning shakllanishiga olib keladi. Bolalardagi agressivlikning namoyon bo'lishi oilaviy muhitning tasir darajasiga bog'liq hisoblanadi.

2. Tengdoshlar guruhi. Bolalar oiladan tashqarida oz tengqurlari, sinfdoshlari bilan bo'lgan munosabatda ham agressiv xatti-harakatlarni o'zlariga singdiradilar. Ko'pgina hollarda bolalar tengdosh do'stlarining xatti-harakatlarini kuzatgan tarzda o'zlarini agressiv tutishga urinadilar. Haddan

tashqari agressiv bolalar esa o'z tengdoshlari orasidan siqib chiqariladi. Bunday bolalar o'zini xorlangandek his qilib, o'zi kabi agressiv bolalar guruhidan joy topadilar. Bu esa muammo ustiga muammo tug'dirmasdan qolmaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari - bugungi kunda bolalarning agressivligini kuchaytirishga tasir etayotgan eng kuchli quroldir, degan fikr keyingi paytlarda ko'pchilik tomonidan etirof etilmoqda. Shu o'rinda oynai jahon orqali namoyish etilayotgan turli jangari filmlar, ko'rsatuvlar ham bolalarda agressiv xususiyatlarning tarkib topishiga tasir qilayotganligi mutaxassislar tomonidan qayd etilmoqda. Bu borada internetning tasiri ham o'ziga xosligi inkor etib bo'lmas haqiqatdir. Maktab bolalari internet orqali o'zining yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelmaydigan malumotlar bilan tanishmoqda, jangarilikni, agressiyani targ'ib etuvchi, shakllantiruvchi turli xil o'yinlarni o'ynash orqali o'zlarining ongosti sohasida agressiv xulqning shakllanishiga sabab bo'lmoqdalar.

Bir qator psixologlarning takidlashicha, oiladagi iqlim, ota-ona o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ota-ona bilan farzand o'rtasidagi munosabatlar, oilaviy hamohanglik yoki aksincha kelisha olmaslik, opa-singillar, aka-ukalar bilan yaqinlik darajasi, farzand tomonidan qilingan notog'ri, yanglish xatti harakatlarga nisbatan ota-onaning agressiv reaksiyasi - oilada shakllanib kelayotgan agressiv xatti-harakatlarini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar hisoblanadi.

Odatda, boladagi tushkunlik, siqilish holatlariga kattalar tomonidan yetarlicha etibor qaratilmaydi. Aslida bunday holat bolada chuqur taassurot qoldirib, o'tishi qiyin kechadi.

Agressiv bolalarning xususiyatlari:

- 1) har bir vaziyatdan xavf-xatar sezish, qo'rqishi;
 - 2) o'ziga nisbatan salbiy munosabatni his qilishi;
 - 3) atrofdagilarni salbiy idrok qilish, kopchilikni yoqtirmasligi;
 - 4) o'zini nazorat qila olmaslik;
 - 5) salbiy xatti-harakatlarning oqibatlarini o'ylamaslik, sheriklarini urib tashlashi;
 - 6) insonlar va hayvonlarga nisbatan bag'ri-toshlik, uy hayvonlarini qiynashi;
 - 7) agressiyadan zavqlanish, u yordamida kuchli bolaman deb o'ylash
- Boladagi agressiyaning paydo bo'lishida faol ishtirok etuvchi omillar

1. Oila muhiti

Oiladagi tarbiyaning usuli;

oilada o'zini ortiqcha, keraksiz his qilish;

oilada mehr-muhabbatning yetishmasligi;
oiladagi notinchlik, urish, janjallar;
hissiyotlariga nisbatan befarqlikni his qilish.

2. Kattalarning munosabatlari; bolalar bilan salbiy muloqot; ko'p buyruq berish, ayblov va tahdidlar; kichkintoyni tanqid va haqorat qilish; bolaning xohish istaklarini hisobga olmaslik.

3. Bolaning guruhdagi o'rnidan, tengdoshlarining munosabatlaridan qoniqmasligi.

Bolalar o'rasidagi munosabatlarga quyidagilar tasir ko'rsatadi: tashqi ko'rinishi, yoqimtoyligi, tartib-intizomi, toza-ozodaligi; chiroyli o'yinchoqlarga egaligi; dunyoqarashi; kattalarning ijobiy munosabatlari; liderlik.

Yuqoridagi holatlardan malum bo'ladiki, aksariyat hollarda boladagi agressiyaning sababi oilaviy munosabatlar sanaladi. Agar oilada ota-ona bolaga qiyinchiliklarni yengishga yordam bersa, bolani tinchlantira olsa, muloqotga mehribonlik, gamxorlikni kiritisa, shu asosida unda agressivlikni yengib o'tishga imkoniyat yaratadi. Agressiv bolaning ota-onasi bilan ishlash qiyin jarayon. Sababi ularga avvalo agressiya keltirib chiqargan yoki oilada sog'lom muhit shakllantira olmagan, yoki bolaning agressiya olishi mumkin bo'lgan holatlardan himoya qila olmaganligin tushuntira bilish kerak. Shuning uchun psixolog iloji boricha ota-onalar bilan psixoterapevtik ishlarni olib borishi kerak. Agressivlikdan qutulish uchun ham ishni ota onadan boshlash lozim. Xulq-atvorida o'zgarishlar kuzatilgan bolalar bilan ishlash jarayoni o'ziga xos tarzda amalga oshiriladi. Agressiv bolalar bilan ishlashda qo'llaniladigan usul hozirgi kunda eng ommalashgan psixoterapevtik ishlarning guruhiy usulidir.

XULOSA

Hozirgi paytda agressivlilik muommosi psixologiyadagi eng dolzarb mavzulardan biriga aylangan. Insondagi agressivlik holati har qanday sabablarga bogliq bolib, bu holatning psixodiagnostikasi, psixoprofilaktikasi boyicha xorijda bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan va ulardan amaliyotchi psixologlarimiz foydalanib kelmoqda. Shunday bolsada maktabgacha talim muassasalari xodimlari va maktab psixologlari songi paytlarda bolalarda agressivlilik juda kopayib ketganini takidlab kelishadi. Bolalarda agressiv harakatlar ayniqsa, ularning otish davrida kuzatiladi. Yani har qanday qiyin vaziyatda bolaning yosh krizisi muommolarga tola boladi. Hozirgi kunda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tarkibida kichik maktab yoshi oquvchilarining talim jarayonidagi faolligini oshirish, shaxslararo munosabatlarini yaxshilash, axloqiy konikmalar shakllantirilishining psixologik mexanizmlarini takomillashtirish muhim masalalardan hisoblanadi.

Gazablanish, qorqish va shu kabi boshqa emotsiyalar insonni orab turgan sharoitga moslashish vazifasini bajaradi. Gazablanish odamlarda ham hayvonlar kabi tosiqlarni yoqotishga, maqsadiga erishishiga, o'zini himoya qilishiga yordam beradi. Shuning uchun har qanday agressiyani ko'rsatish qonun buzarlilik hisoblanmaydi. Bolalar hayotida agressiv xulq-atvor tez-tez uchrab turadi. Ulg'ayib kelayotgan bolalarda psixologik holatlar kechishiga vaqtida e'tibor berilmasa sa'lbiy oqibatlar yuzaga kelishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lorens K. Agressiya M: Nauka, 2009-yil
2. Z.T.Nishonova , N.G.Kamilova " Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik Psixologiya" TOSHKENT:2018- yil;
3. Nishanova Z. Alimbayeva Sh. Sulaymonov M. Psixologik xizmat// Toshkent, 2014;
4. Xaydarov F.I. Xalilova N.I Umumiy psixologiya// Toshkent, 2010
5. Nishonova Z.Alimova G. "Bolalar psixologiyasiva uni o'qitish metodikasi" T.2006y
6. Voxidov M. "Bolalar psixologiyasi" T.: O`qituvchi. 1982 y;
7. G'oziyev E.G'. Ontogenez psixologiyasi. – T:Noshir. 2010;
8. Davletshin M.G, Do'stmuhammedova Sh.A., Mavlonov M.M., To'ychiyeva S.M., "Yosh va pedagogik psixologiya" T. TDPU, 2004;
9. Umarova F. Bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.T.: 2012
10. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati